

## **Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zini-o'zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish**

Furqatjon Shuhratjonovich Madaminov

Dilrabo Sa'dulla qizi Axmedova

NamDU

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zini-o'zi baholashning afzalliklari, o'zini-o'zi baholash faoliyati jarayonini tarkib toptirishga oid tavsiyalar va mustaqil bilish faolligini rivojlantirish to'g'risida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** o'zini-o'zi baholash, mustaqil bilish, faollik, intellektual, konsepsiya, texnologiya, interfaol uslublar, optimal, shahsiy fazilatlar, komponent, kognitiv

## **Development of independent cognitiivi activity in elementary school students through self-assessment**

Furqatjon Shuhratjonovich Madaminov

Dilrabo Sadulla kizi Akhmedova

NamSU

**Abstract:** This article provides information on the advantages of self-assessment of elementary school students, recommendations on the composition of the process of self-assessment activities, and the developmens of independent cognitive activity.

**Keywords:** self-assessment, independent, knovledgo, activity, intellectual, concept, technology, interactive styles, optimal, personal qualities, component, cognitive

Bugungi zamonaviy hayotni ilm- ma'rifat va ta'limning jadal taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Dunyoning ilg'or mamlakatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galadagi ustuvor vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, har qaysi davlatning yuksak ravnaqi aynan ilmu-fan sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Yurtimizdag'i "Uchinchi Renessans" davri ta'lim sohasidagi tub islohatlarni, zamonaviy ta'lim tizimini barpo etishning ustuvor yo'nalishlarini, bir so'z bilan aytganda, sohaning strategik vazifalarini belgilab berdi. Ushbu vazifalarning mohiyati yangi sifat va shaklda inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarda

ichki va tashqi mehnat bozori talab qilayotgan amaliy ko'nikmalarni shakillantirish, ularning Vatanga muhabbatini, xalqiga sadoqatini yuksaltirishdan iboratdir.

Mazkur vazifalar esa keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yilgani, kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlar taqdiri va ularning ta'litarbiyasi, intellektual salohiyatlari va ma'naviy etuk bo'lish Davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini ko'rish mumkin.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabr kungi Oliy Majlisga navbatdagi Murojatnomasida "Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga etkazamiz"<sup>[1]</sup> deb aytgan so'zlari yuqoridagi vazifalarni haqiqatda muhim ekanligini amalda ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda Jahonda halqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha belgilangan ta'lif konsepsiyasida boshlang'ich ta'lif tizimi "Ta'lif taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga etkazuvchi muhim faoliyat" sifatida e'tirof et ilib, sifatlari ta'lif berish, o'zlashtirish natijalarini baholash usullarini takomillashtirish va o'quvchilar intellektual darajasini rivojlantirishning samarali usullaridan keng foydalanishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Pespublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining erkin, mustaqil fikrlashi, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo'lishi, o'zini-o'zi baholashi va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini rivojlantirish asosiy masalalar sifatida qaralmoqda.<sup>[2]</sup> Bunda shahsning intellektual sifatlarini shakillantirish, tajriba va tarbiya resurslaridan samarali foydalanish pedagogning mahoratiga, tinmay o'zini-o'zi rivojlantirishiga egallagan bilim va olgan tajribalarini amaliyotga tadbiq etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog o'quvchilarining o'zini-o'zi baholash orqali mustaqil bilishni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlarining didaktik- pedagogik imkoniyatlari va metodlarini aniqlashi va o'quvchilarining yosh hususiyatlariga mos bo'lgan texnologiyalarni qo'llay olishi lozim.

O'z-o'zini baholash nima? O'z-o'zini baholash yoki o'zini o'zi baholash imkonini beruvchi usuldir, muayyan vazifada o'zining kuchli va zaif tomonlarini baholash, birgalikda baholash, qiyinchilikka ishonch hosil qilish uchun muhim vositadir. Agar biz ijobiy natijaga erishmoqchi bo'lsak, qulay xulosalar chiqarish va shunga muvofiq harakat qilish uchun o'z-o'zini baholashni amalgalashirish muhimdir.<sup>[3]</sup>

T.D.Marsinkovskaya ta'kidlaganidek, bolalar 7 yoshdan boshlab sodir bo'layotgan harakatlarning sababini tushunishni boshlaydi (hatti-harakatni baholashni boshlanishi), lekin buni hamma bolalar ham qila olmaydi. Ko'p holatlarda kichik mакtab yoshi o'quvchilari yon-atrofida sodir bo'layotgan voqeliklar boshqalar (ota-onasi, o'qituvchi va h.k) tomonidan baholanadi. Bu esa bolaning o'zini va

imkoniyatlarini anglash jarayonini sekinlashtiradi. Chunki, aynan shu davrda kichik maktab yoshi o'quvchilarida shahsiy ong, o'zlik tushunchasi shakillana boshlaydi.[4]

Sahs tomonidan o'zlikning anglanishi uning o'z-o'zini baholashi bilan bog'liq. Psihologiyada shahsning o'z-o'zini baholashi uchun quyidagi uch omil muhim ekanligi ta'kidlanadi:

1. O'zini tushunish (o'zi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish).
2. Shahs sifatida o'z qadr-qimmatini anglash (o'zi to'g'risida ijobiy ma'lumotlarni to'plash).
3. O'z-o'zini nazorat qilish (o'zi to'g'risidagi shahsiy bilimlarning atrofdagilar tomonidan u haqida bildirayotgan fikrlar bilan o'zaro muvofiq kelishi).

O'z-o'zini baholash darajasi shahsning o'zidan-o'zi qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Buning uchun o'zini-o'zi baholash ko'rsatkichlari shahs imkoniyatlariga mos kela olishi lozim. O'zini-o'zi oshirib yoki pasaytirib ko'rsatish o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining noto'g'ri bo'lishiga olib keladi.

Ko'plab manbalarda shahs tomonidan o'zini-o'zi baholash quyidagi formula bo'yicha aniqlanishi maqsadga muvofiq ekanligi aytiladi.

**"O'z-o'zini baholash = yutuqlar / o'zini yuqori baholashga intilish"**

Formulaga ko'ra, qandaydir yutuqqa erishgach, shahs o'zini-o'zi yuqori baholashi (yutuqlar hissasini oshirishi) yoki o'ziga nisbatan qo'yayotgan talablarni pasaytirishi hisobiga amalga oshiriladi.

Ozlikni o'zini-o'zi anglashning asosiy yo'llari quyidagilar hisoblanadi.

- Boshqa shahslarniki bilan solishtirilgan holda o'zi faolyati va xulq-atvorini tahlil qilish;
- O'zini-o'zi kuzatish (video va audio yozuvlar, o'zining o'y hayollari, his tuyg'ularini tahlil qilish, o'zini-o'zi tashqi va ichki kuzatish);
- O'z-o'ziga ishonish (o'ziga-o'zi hisobat berish).[5]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zini-o'zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirishga qaratilgan tarkibning asosi ham shu bosqich hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limning ilk davrlarida o'quvchilar faqat o'qituvchi bahosi bilan kifoyalanadi, lekin keyingi bosqichlarda o'qituvchi mahorati sabab ular o'zlarini baholash jarayoniga kirib boradi. Bu davrda ko'pincha o'quvchilar uchun o'z-o'zini baholash- bu o'zining bilim saviyasiga nisbatan tadbiq etiladi. Shunday vaziyatlar ham kuzatiladiki shahsiy fazilatlatlar, qobiliyatlar, tengdoshlari bilan muomala-munosabatlar ham o'zini-o'zi baholash jarayonida hisobga olina boshlaydi.

Demak, o'z-o'zini baholash tuzilmasida ikkita component ajralib turadi:

- kognitiv, har bir shahs turli hil ma'lumot manbalaridan o'zi haqida bilib olgan hamma narsalarni aks ettiradi;
- hissiy, shahsiyatning turli tomonlariga (fe'l-atvor hususiyatlari, xulq-atvori, odatlari va boshqalar) o'z munosabatini bildirish.[6]

Hulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Boshlang'ich sinf o'quvchilari dars jarayonida, darsdan tashqari holatlarda o'zini-o'zi to'g'ri va tanqidiy baholay olsa, o'z faoliyatida mustaqil bilim olishga intilsa, bu uning kelajakda jamiyat hayotiga munosib hissa qo'shuvchi shahs bo'lishidan dalolat beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyayaev. 2020 yil 31 avgustdagি O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali nutqi. / <https://uza.uz/uz/potos/> president-shavkat-mirziyayevning-uzbekiston-respublikasi-musta-31-08-2020.
2. N.A.Mahmudova. O'smirlarda o'z-o'zini baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish. Namangan 2022 yil.bet-7
3. O'z-o'zini baholash: ish faoliyatini yahshilash uchun ushbu usuldan foydalaning. [Https://plog.Cognosit.com](https://plog.Cognosit.com).
4. Marsinkovskaya T.D. Diagnostika psihicheskogo pazvitiya detey, posobiye prakticheskoy psihologiya,-M Linka- press,1997.-176 s.
5. U.I.Inoyatov, N.A. Muslimov, D.I. Ro'ziyeva, M.X.Usmonboeva. Pedagogika darslik. Toshkent. 2013 yil. Bet-92-93.
6. Sh Shodmonova . Oliy o'quv yurtlari talabalarida mustaqillik tafakkurini shakillantirish va rivojlantirish. Ped. Fan. Dokt...diss.-T;2010.
7. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'r ganishning o'r ganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.
8. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(2), 969-972.
9. M.Ya., & Kamolova A.O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. Экономика и социум, (8 (87)), 42-45.
10. кизи Ахмедова, Д. С., & кизи Камолова, А. О. (2022). ЎСМИРЛАРДА МЕЪЁРДАН ХУЛҚИЙ ОФИШ ХОЛАТЛАРИНИ КОРРЕКЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА ХУҚУҚИЙ САВОДХОНЛИКНИНГ АХАМИЯТИ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(3), 413-416
11. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). USING CASE STADE TECHNOLOGY IN LEGAL EDUCATION FOR TEENAGERS. Экономика и социум, (8), 42-45.